

**MA'MURIY PREYUDITSIYA MURAKKAB YURIDIK KONSTRUKSIYA SIFATIDA:
SHAKLLANISH TARIXI VA HUQUQIY INTEGRATSIYASI**

Azbergenova Munira Charjau qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti «Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti» magistri muniraazbergenova5@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ma'muriy preyuditsiya institutining yuridik tabiati, uning shakllanish tarixi va O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligiga integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Rim huquqidan boshlab, sovet davri va mustaqillik yillaridagi qonunchilik rivojlanishi, xususan, 1926, 1959 va 1994-yillardagi Jinoyat kodekslaridagi o'zgarishlar qiyosiy o'rganilgan. Ma'muriy preyuditsiyaning "kriminologik filtr" sifatidagi vazifasi hamda uning ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar profilaktikasidagi ahamiyati asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *ma'muriy preyuditsiya, jinoyat huquqi, kriminologik filtr, ijtimoiy xavflilik, jinoiy javobgarlik, insonparvarlik, Rim huquqi, sud qarori.*

**АДМИНИСТРАТИВНАЯ ПРЕЮДИЦИЯ КАК СЛОЖНАЯ ЮРИДИЧЕСКАЯ
КОНСТРУКЦИЯ: ИСТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ И ПРАВОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ**

Азбергенова Мунира Чаржаувна

*Ташкентский государственный юридический университет, Магистр наук по специальности «Теория и практика применения уголовного законодательства»,
muniraazbergenova5@gmail.com*

Аннотация: *В данной статье анализируется юридическая природа института административной преюдиции, история его формирования и интеграция в уголовное законодательство Республики Узбекистан. В исследовании сравнительно изучено развитие законодательства, начиная с римского права, советского периода и лет независимости, в частности, изменения в Уголовных кодексах 1926, 1959 и 1994 годов. Обоснована роль административной преюдиции как «криминологического фильтра» и её значение в профилактике преступлений, не представляющих большой общественной опасности.*

Ключевые слова: *административная преюдиция, уголовное право, криминологический фильтр, общественная опасность, уголовная ответственность, гуманизм, римское право, судебное решение.*

ADMINISTRATIVE PREJUDICATION AS A COMPLEX LEGAL STRUCTURE: HISTORY OF FORMATION AND LEGAL INTEGRATION

Azbergenova Munira Charjau kyzy

*Tashkent State University of Law, Master's in "Theory and Practice of Application of
Criminal Legislation"*

muniraazbergenova5@gmail.com

Abstract: *This article analyzes the legal nature of the administrative prejudice institution, its formation history, and its integration into the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan. The research comparatively studies the development of legislation starting from Roman law, the Soviet period, and the years of independence, specifically the changes in the Criminal Codes of 1926, 1959, and 1994. The role of administrative prejudice as a "criminological filter" and its significance in the prevention of crimes that do not pose a great social danger are justified.*

Keywords: *administrative prejudice, criminal law, criminological filter, social danger, criminal liability, humanism, Roman law, court decision.*

Zamonaviy jinoyat huquqi doktrinasida ma'muriy preyuditsiya tushunchasi huquqbuzarliklar klassifikatsiyasi va jinoiy javobgarlikni differensiallashuvda o'ziga xos o'rin tutadi. Preyuditsiya tushunchasi huquqshunoslikda ko'p qirrali mazmun kasb etadi va uning mohiyati sud amaliyotida ilgari qabul qilingan qarorlarning keyingi ishlar uchun belgilovchi ta'sirida namoyon bo'ladi.

Tarixiy jihatdan preyuditsiya instituti Rim huquqidan kelib chiqqan bo'lib, lotincha *praejudicium* so'zi "oldindan hukm qilish" (*praeiudico*) va "oldin bo'lish" (*praecedo*) ma'nolarini o'zida mujassam etadi⁸¹. Rim huquqi tizimida *praejudicium* ilgari qonuniy kuchga ega bo'lgan sud qarori asosida muayyan masalaning oldindan hal etilganligini anglatgan.

Rim huquqshunoslari tomonidan ilgari surilgan va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan "res judicata pro veritate habetur" tamoyiliga ko'ra, qonuniy kuchga kirgan sud qarori haqiqat sifatida e'tirof etiladi. Mazkur prinsip preyuditsiya institutining nazariy asosini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan, preyuditsiya nafaqat ayni bir predmet yuzasidan keyinchalik ko'rib chiqiladigan sud ishlariga ta'sir ko'rsatuvchi, ya'ni *res judicata* ("ish hal etilgan") konsepsiyasini ifodalovchi huquqiy norma sifatida, balki boshqa huquqiy masalalarning hal etilishi bevosita bog'liq bo'lgan faktik holatlarni aniqlashga xizmat qiluvchi dastlabki sud hujjati (ajrim yoki qaror) sifatida ham talqin etiladi.

"Ma'muriy preyuditsiya" atamasi jinoyat huquqi nazariyasiga faqat XX asrning 60-yillari boshlarida kiritilgan. Tarixiy jihatdan ma'muriy preyuditsiyaning shakllanishi sobiq ittifoq davri jinoyat qonunchiligi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu davrda huquqbuzarliklarni ijtimoiy

⁸¹Garner, B. A. (2019). Black's Law Dictionary (11th ed.). Thomson Reuters.

xavflilik darajasiga qarab bosqichma-bosqich baholash tamoyili shakllandi. Mazkur tamoyilning amaliy ifodasini institutning terminologik shakllanishidan ancha avvalroq ya'ni 1926-yilgi O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksi normalari misolida ham ko'rishimiz mumkin edi.

1926-yilgi O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksi amal qilgan davr jinoyat huquqi tarixida "Sotsiologik maktab" va "Sinfy yondashuv" ustuvor bo'lgan davr hisoblanadi. Bu davrda ma'muriy preyuditsiya bugungidek aniq texnik termin emas, balki shaxsni jamiyat uchun xavfli deb topishning asosi sifatida namoyon bo'lgan.

1926-yilgi Kodeksning asosi jinoyat sodir etgan shaxsning "ijtimoiy xavfliligi" g'oyasiga qurilgan edi. U paytda jazo shunchaki qilmish uchun emas, balki "jamiyatni himoya qilish" uchun qo'llanilgan. Agar shaxs ilgari ma'muriy tartibda jazolangan bo'lsa-yu, yana xato qilsa, u "tuzalmas element" yoki "sinfy dushman" sifatida ko'rilgan. Ma'muriy jazolarning mavjudligi shaxsni "ijtimoiy xavfli holatda" deb topish uchun isbot bo'lib xizmat qilgan. Ya'ni, bir marta qilingan xato tasodif hisoblangan, ammo ma'muriy jazodan keyin uning takrorlanishi tizimli qarshilik sifatida baholangan.

1926-yilgi O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksida ma'muriy preyuditsiya elementlarining namoyon bo'lishi o'sha davrning "huquqiy utilitarizmi" va "ijtimoiy profilaktika" g'oyalari bilan bevosita bog'liq edi. Garchi qonun matnida ushbu atama ishlatilmagan bo'lsa-da, amaliyotda "ma'muriy huquqbuzarlik- jinoiy jazo" zanjiri davlat boshqaruvining muhim dastagi bo'lib xizmat qilgan.

1920-yillarda jinoyat huquqi qilmishga emas, ko'proq shaxsning turmush tarziga qaratilgan edi. Ma'muriy huquqbuzarlik ko'rsatkich sifatida mayda o'g'riliklar, jamoat tartibini buzish yoki bezorilik kabi qilmishlar dastlab jinoiy jazo chorasini talab qilmaydigan "yengil huquqbuzarlik" (prostupok) deb qaralgan. Biroq, ushbu huquqbuzarliklarning miqdoriy to'planishi shaxsni "ijtimoiy xavfli element" (SOE - социально-опасный элемент) deb toifalashga asos bo'lgan.

Agar shaxs bir necha marta ma'muriy jazolanganidan keyin ham o'zini o'nglamasa, unga nisbatan residivning maxsus turi qo'llanilgan. Bu yerda residiv jinoyatlarning takrorlanishi emas, balki "g'ayriijtimoiy faoliyatning davomiyligi" sifatida tushunilgan.

Bunday shaxslarga nisbatan nafaqat qamoq, balki uzoq muddatli surgun yoki mehnat-tuzatish lagerlariga jo'natish choralari ko'rilgan. Bu choralardan ko'zlangan maqsad jazolash emas, balki shaxsni jamiyatdan "tozalash" va majburiy mehnat orqali "qayta tarbiyalash" bo'lgan⁸².

1959-yilda yangi tahrirdagi O'z SSR Jinoyat kodeksining qabul qilinishi ma'muriy preyuditsiya institutining rivojlanishida burilish nuqtasi bo'ldi. Agar 1926-yilgi kodeksda bu institut tarqoq va "sinfy xavflilik" niqobi ostida bo'lgan bo'lsa, 1959-yilgi tahrirda u aniq yuridik konstruktsiya shakliga keldi.

1959-yilgi O'zSSR JKda ma'muriy preyuditsiya tizimli tus oldi. Bu davrda kodeksning Maxsus qismidagi moddalarning deyarli 20-25 foizi ma'muriy preyuditsiya bilan bog'liq edi.

⁸² Герцензон А.А. Уголовное право. Часть Общая. - М.: Юриздат, 1948. - С. 234-237.

Kodeksda shaxs muayyan huquqbuzarlik uchun ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida xuddi shunday qilmishni takroran sodir etsa, jinoiy javobgarlikka tortilishi qat'iy belgilab qo'yildi.

Sovet davrida ma'muriy preyuditsiya masalasini o'rgangan tadqiqotchi Ch.F.Mustafayevning ta'kidlashicha⁸³, O'zbekiston SSRning 1959-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksining dastlabki tahririda ma'muriy preyuditsiya belgisi mavjud bo'lgan 12 ta jinoyat tarkibi nazarda tutilgan. Mazkur holat tahlili shuni ko'rsatadiki, o'sha davrda O'zbekiston SSR jinoyat qonunchiligida ma'muriy preyuditsiyaga ega jinoyatlar soni RSFSR tarkibidagi boshqa respublikalarga nisbatan ko'proq bo'lgan. Xususan, Turkmaniston SSR JKda -11 ta, Gruziya SSR va Tojikiston SSR JKlarida - 10 tadan, Litva SSR, Qirg'iziston SSR, Armaniston SSR JKlarida - 8 tadan, Ukraina SSR, Belorussiya SSR, Latviya SSR JKlarida - 7 tadan, Estoniya SSR va Qozog'iston SSR JKlarida - 5 tadan, Moldaviya SSR JKda - 3 ta tarkib nazarda tutilgan edi.

XX asrning 80-yillariga kelib, sovet jinoyat qonunchiligida ma'muriy preyuditsiya institutining qo'llanilish ko'lami o'zining cho'qqisiga chiqdi. Tadqiqotlarga ko'ra, 1985-yil holatiga ittifoqdosh respublikalar Jinoyat kodekslarida ushbu turdagi normalar soni sezilarli darajada ortganligi kuzatiladi. Xususan, O'zbekiston SSR ushbu ko'rsatkich bo'yicha yetakchi o'rinni egallab, uning Jinoyat kodeksida preyuditsiyali normalar soni 27 tani tashkil etgan. Shuningdek, Gruziya SSR (19 ta) va Ozarbayjon SSR (18 ta) qonunchiligida ham ushbu institut keng o'rin egallagan bo'lsa, Boltiqbo'yi respublikalari hamda Qirg'iziston SSRda bu ko'rsatkich o'rtacha 15 tadan moddani tashkil qilgan⁸⁴.

1959-yilgi islohotning bosh g'oyasi shaxsni qamoqqa tiqish emas, balki uni jamiyat yordamida qayta tarbiyalash edi. Ma'muriy preyuditsiya bu davrda "oxirgi ogohlantirish" vazifasini o'tagan. A.B. Saxarov fikricha ushbu davrdagi preyuditsiyani shaxsning "ijtimoiy moslashuvchanligini tekshirish" deb atagan. Agar shaxs ma'muriy jazodan keyin to'xtasa, demak u jamiyat uchun xavfli emas⁸⁵.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng qabul qilingan 1994-yil 22-sentyabrdagi amaldagi Jinoyat kodeksida ma'muriy preyuditsiya institutining qo'llanilish ko'lami bo'yicha o'zidan oldingi sovet davri qonunchiligidan o'zib ketdi. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, yangi tahrirdagi kodeksning Maxsus qismida 29 ta ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkibi o'rin olgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich hatto sovet davridagi (1985-yilgi 27 ta modda) miqdordan ham oshib ketganligini ko'rish mumkin. Bu holat milliy qonunchilikning shakllanish bosqichida jinoiy siyosatni insonparvarlashtirish va ma'muriy choralar samaradorligiga bo'lgan ishonchning yuqori bo'lganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi Maxsus qismida ma'muriy preyuditsiya instituti keng o'rin egallagan bo'lib, u muayyan qilmishlarni faqat shaxs xuddi

⁸³Мустафаев Ч.Ф. Административная преюдиция в советском уголовном праве. Дис. канд. юрид. наук. Баку. 1986. С. 58-61.

⁸⁴Мустафаев Ч.Ф. Административная преюдиция в советском уголовном праве. Дис. канд. юрид. наук. Баку. 1986. С. 58-61.

⁸⁵Сахаров А.Б. О личности преступника и причинах преступности в СССР. - М.: Госюриздат, 1961. - С. 142.

shunday harakat uchun avval ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin takroran sodir etgan taqdirdagina jinoyat sifatida baholashni nazarda tutadi.

Jinoyat kodeksining tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining 14 ta bobida jami 66 ta modda ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblarini o'z ichiga oladi, bu esa Maxsus qismdagi jami moddalarning qariyb 1/5 qismini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi ma'muriy preyuditsiyali normalarni quyidagi kategoriyalarga ajratish mumkin⁸⁶: V bob. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar (9 ta modda), VI bob. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar (2 ta modda), VII bob. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar (6 ta modda), VIII bob. Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (1 ta modda), XII bob. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar (8 ta modda), XIII bob. Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar (2 ta modda), XIII 1 bob. Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar (8 ta modda), XIV bob. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar (3 ta modda), XV bob. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar (12 ta modda), XVI bob. Odil sudlovga qarshi jinoyatlar (2 ta modda), XVII bob. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (6 ta modda), XVIII bob. Transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (4 ta modda), XX bob. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar (1 ta modda), XX¹ bob. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar (2 ta modda) ushbu moddalarda ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tizimli tahlili shuni ko'rsatadiki, XV bob (Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar) ma'muriy preyuditsiyali normalarning eng yuqori konsentratsiyasiga ega bo'lgan tarkibiy tuzilmadir. Mazkur bobda jami 12 ta modda aynan ushbu institut asosida shakllantirilgan bo'lib, bu holat bir qator fundamental huquqiy omillar bilan izohlanadi.

Birinchi dan, boshqaruv tartibiga qarshi qilmishlarning bevosita obyekt davlat apparati va organlarining qonuniy hamda barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashdan iboratdir. Ushbu sohada davlat nazoratini amalga oshirishda ma'muriy va jinoiy huquqiy vositalarning differensial bog'liqligi yaqqol namoyon bo'ladi. Davlat muayyan boshqaruv munosabatlaridagi huquqbuzarliklarni jilovlashda, avvalo, ma'muriy ta'sir choralarining samaradorligiga tayanadi.

Jinoiy javobgarlik faqat ma'muriy jazo choralari kutilgan natijani bermagan ya'ni shaxs o'ziga nisbatan qo'llanilgan huquqiy ta'sir chorasidan tegishli xulosa chiqarmasdan, qilmishni takroran sodir etgan taqdirdagina yuzaga keladi. Bu esa ma'muriy preyuditsiyaning "kriminologik filtr" vazifasini bajarishini va faqatgina huquqiy tartibni tizimli ravishda inkor etuvchi shaxslarga nisbatan jinoiy-huquqiy repressiyani qo'llashni kafolatlaydi.

Shunday qilib, XV bobda preyuditsiyali normalarning ko'pligi (12 ta modda) milliy jinoiy siyosatning jazolashdan ko'ra profilaktika va tarbiyaviy choralar ustuvorligiga asoslanganini tasdiqlaydi.

⁸⁶O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 27.03.2026-y., 03/26/1124/0277-son) <https://lex.uz/mact/-111453>

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining V bobi (oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar) ma'muriy preyuditsiyali normalar soni bo'yicha Maxsus qismda ikkinchi o'rinni egallaydi (jami 9 ta modda).

Ushbu bobda preyuditsiya institutining keng qo'llanilishi bir qator konseptual sabablar bilan izohlanadi. Ularning asosiylaridan biri - oila barqarorligini saqlash va ijtimoiy himoyani ta'minlashdir. Ma'lumki, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar (masalan, aliment to'lashdan bo'yin tovlash yoki oilaviy zo'ravonlik) o'ta nozik xususiyatga ega. Bunday qilmishlar uchun darhol jinoiy javobgarlikni qo'llash oilaning butunlay parokanda bo'lishiga va shaxsning jamiyatdan ajralib qolishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli qonun chiqaruvchi, avvalo, ma'muriy jazo choralarini qo'llash orqali shaxsni ogohlantirish va unga tuzalish imkoniyatini berishni maqsadga muvofiq deb hisoblagan. Xulosa qilib aytganda, V bobda ma'muriy preyuditsiyaning yuqori darajada namoyon bo'lishi davlatning insonparvarlik prinsipiga asoslanib, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarni himoya qilishda repressiv choralar o'rniga profilaktik ta'sir choralariga ustunlik berayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XII bobi (iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar) va XIII¹ bobi (tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar) iqtisodiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda markaziy o'rin tutadi.

Mazkur sohada davlat uchun jazolashdan ko'ra, yetkazilgan moddiy zararni qoplash muhimroq hisoblanadi. Masalan, JKning 184-moddasiga muvofiq, soliqlarni to'liq to'lagan shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan. Shu bois iqtisodiy jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga dastlab ma'muriy jazo qo'llash orqali ularga o'z faoliyatini qonuniy doiraga qaytarish imkoniyati beriladi.

Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar XIII¹ bobi 2015-yil 20-avgustdagi O'RQ-391-sonli Qonun⁸⁷ bilan Kodeksga kiritilgan bo'lib, tarkibidagi moddalarda ma'muriy preyuditsiyaning mavjudligi davlatning tadbirkorlik subyektlarini himoya qilish va jazo siyosatini liberallashtirish strategiyasi bilan bog'liq. Ma'muriy preyuditsiya bu yerda "filtr" vazifasini o'tab, birinchi marta yo'l qo'yilgan va og'ir oqibatlariga sabab bo'lmagan professional xatoliklar uchun shaxsni darhol jinoiy javobgarlikka tortmasdan, unga o'z xulqini tuzatish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, XIII¹ bobda ma'muriy preyuditsiyaning belgilanishi tadbirkorlik muhitini sog'lomlashtirishga qaratilgan bo'lib, u mansabdor shaxslarning faoliyatiga jinoiy jazo bosimini kamaytirish bilan birga, tadbirkorlar huquqlarining tizimli ravishda buzilishini oldini olishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblarini JK 15-moddasidagi tasnifga (ijtimoiy xavflilik darajasiga) ko'ra tahlil

⁸⁷ O'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.08.2015 yildagi O'RQ-391-son <https://lex.uz/docs/-2724496> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.07.2023-y., 03/23/850/0439-son)

qilinganda, mazkur institutga asoslangan normalarning aksariyati ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga kirishini ko'rish mumkin.

Jinoyat kodeksining 15-moddasiga muvofiq, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, biroq besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan qilmishlar kiradi.

Mazkur tasnif asosida tahlil qilinganda, ma'muriy preyuditsiyali jinoyatlar orasida ayrimlari aynan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga mansub ekanligi aniqlanadi. Jumladan, Jinoyat kodeksining 182-moddasi birinchi qismi, 186¹-moddasining birinchi va uchinchi qismlari, 186³-moddasining birinchi qismi hamda 192⁴-moddasida nazarda tutilgan qilmishlar ushbu toifaga kiradi.

Shu bilan birga, ma'muriy preyuditsiyaga asoslangan boshqa jinoyat tarkiblarining aksariyati ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar toifasiga mansub bo'lib, bu mazkur institutning asosan ijtimoiy xavflilik darajasi nisbatan past bo'lgan qilmishlarga nisbatan qo'llanilishini ko'rsatadi. Jinoyatlarning bunday tasniflanishi ma'muriy preyuditsiya institutining fundamental mohiyatini tasdiqlaydi, ya'ni u asosan ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lmagan sohalarda "kriminologik filtr" vazifasini o'taydi. Bu esa davlatga og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga qarshi kurashishda asosiy resurslarni jamlash, kichik huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarga nisbatan esa jinoiy repressiyani ma'muriy ta'sir choralari bilan almashtirish orqali insonparvarlik tamoyilini amalga oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi ma'muriy preyuditsiyali jinoyat tarkiblarining JK 15-moddasiga muvofiq tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu institut asosan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar doirasida qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Garner, B. A. (2019). Black's Law Dictionary (11th ed.). Thomson Reuters.
2. Герцензон А.А. Уголовное право. Часть Общая. - М.: Юриздат, 1948. - С. 234-237.
3. Мустафаев Ч.Ф. Административная преюдиция в советском уголовном праве. Дис. канд. юрид. наук. Баку. 1986. С. 58-61.
4. Мустафаев Ч.Ф. Административная преюдиция в советском уголовном праве. Дис. канд. юрид. наук. Баку. 1986. С. 58-61.
5. Сахаров А.Б. О личности преступника и причинах преступности в СССР. - М.: Госюриздат, 1961. - С. 142.
6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi <https://lex.uz/mact/-111453> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 27.03.2026-y., 03/26/1124/0277-son)
7. O'zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish

yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 20.08.2015 yildagi O'RQ-391-son <https://lex.uz/docs/-2724496> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.07.2023-y., 03/23/850/0439-son)